O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY-
SIYOSIY FANLAR FAKULTETI

Ro‘yxatga olindi: № BD-60220500 2024 yil “18” 03	“TASDIQLAYMAN” SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil “__”_____

“ESTETIKA”
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	220 000 - Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta’lim yo‘nalishi:	60220500 – Falsafa

Fan/modul kodi	Oquv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
ES 1204	2024-2025	2	4
Fan/modul turi	**Ta'lim tili-**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O'zbek		4 soat

1.	Fan nomi	Auditoria mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami:
	Estetika falsafasi	54	66	120

II Fanning maqsadi (FM)	
2	**Fanni o'qitishdan maqsad** – talaba-yoshlarning estetik jarayonlarga doir dunyoqarashini o'stirish, san'atdagi, turmushdagi, ishlab chiqarishdagi, tabiatdagi estetikaning mohiyatini tushuntirish, estetik madaniyatning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyatini tarixiylik va mantiqiylik asosida o'rganish, estetik tafakkurning vujudga kelishi hamda taraqqiyotini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish va ularning falsafiy asoslarini o'rganishdan iborat. Shuningdek, talabalarda estetika falsafasining gnoseologik, metodologik, integrativ, madaniy, aksiyologik funksiyasilari, hozirgi zamon falsafasining asosiy vazifalari va dolzarb muammolarini tahlil qilish va ularni amaliyotdagi ahamiyatini o'rgatishdan iboratdir.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**Estetika kursining predmeti, tadqiqot doirasi, maqsadi va vazifalari** Estetika - nafosatning mohiyatini o'rganuvchi qadimiy fan; estetika fani tadqiqot doirasining miqyosiyligi va ko'pyoqlamaligi; uning falsafiy mohiyati; estetikaning san'atga yondashuvdagi o'ziga xosligi; estetika - san'at, badiiy ijod, dizayn, turmush go'zalligi, atrof-muhitni go'zllashtirish va estetik tarbiya borasidagi umumiy qonuniyatlar hamda estetik mezoniy tushunchalar (kategoriyalar)tizimi sifatida. Estetikaning ijtimoiy fanlar bilan aloqasi; estetika va axloq; estetika va milliy g'oya; estetika va psixologiya; estetika va sotsiologiya; estetika va dinshunoslik; estetika va ma'naviyat, estetika va ekologiya v.h. Estetikaning qamrovli hissiy-intelektual hodisa sifatida shaxs va jamiyat hayotini ma'naviy boyitishdagi vazifalari. Estetikaning milliy ma'naviy taraqqiyotdagi o'rni va axamiyati. Estetikaning maqsadi va vazifalari. .
M2	**Qadimgi Sharqdagi dastlabki estetik g'oyalar va qarashlar** Estetik tafakkur tarixi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Estetik tafakkurning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqiyot bosqichlarini o'rganish - estetika falsafasining asosiy maqsadi; Sharq-qadimgi dunyo estetika falsafasining beshigi sifatida; Somir (Shumer) va Bobilonda dastlabki san'at turlarining vujudga kelishi va estetik g'oyalarning shakllanishi; Qadimgi Misr adabiyoti va san'atining estetik mohiyati. Markaziy Osiyo, Eron va Qadimgi Hindi-Xitoy mintaqalaridagi estetik qarashlar; «Avesto»da ilgari surilgan estetik G'oyalar; «Rigveda» va «Upanishad»larda ko'tarilgan estetik muammolar; daochilik va konfutsiychilik mutafakkirlarining estetikasi.
M3	**Antik davrda estetikasi** Antik davrda estetikaning vujudga kelishi; Qadimgi Yunonistonning mumtoz estetikasi; Suqrot va Aflotunning estetik qarashlari. Arastu estetikasi va uning qadimgi dunyo estetik tafakkurida tutgan o'rni; Plotin falsafasining estetik mohiyati. Qadimgi Rumo estetikaning o'ziga xos jihatlari; Horatsiy Flakk va Tit Lukretsiy Karning estetik qarashlari; Seneka va Boesiy asarlarida o'rtaga tashlangan estetik muammolar. Antik dunyo estetikasining keyingi davrlar jahon estetikasi taraqqiyotiga ta'siri.
M4	**O'rta asrlar musulmon Sharqi va tasavvufida estetikasi** O'rta asrlar musulmon Sharqi estetikasida mashshoiyyunlik va tabiiyyunlik yo'nalishlarining qaror topishi; Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyomning go'zallik muammosiga va she'r san'atiga yondashuvi; tasavvuf estetikasining vujudga kelishi; G'azzoliyning go'zallikka manfaatsiz munosabat xususidagi qarashlari; Rumiy estetikasi va Mavlaviya tariqatidagi estetik xususiyatlar.
M5	**O'rta asrlar Ovro'pa mutafakkirlarining estetik ta'limotlari** O'rta asrlar Ovro'pa estetikasi; (Avgustin, Foma Akvinskiy); musulmon Ispaniyasidagi «Buyuk tarjimalar davri» (XI-XIIIasrlar) va unda Ovro'pa Uyg'onishi g'oyalarining shakllanishi. Italiyalik insonparvarlar tomonidan Uyg'onish davri estetik nazariyalarining yaratilishi (Petrarka, Alberti, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo); o'yg'onish davri ispan estetikasi; barokko san'ati (Lop de Vega, F. Kevedo, B. Grasilasa) o'yg'onish davri estetikasi so'nggi bosqichining o'ziga xos tomonlari (Shekspir, Servantes, Rable) gotik estetika.
M6	**Yangi davr Ovro'pa mutafakkirlarining estetikasi** Ovro'pa estetik tafakkurida Yangi davrning boshlanishi; Dekart ratsionalizmi va mumtozchilik estetika falsafasining tamoyillari (Bualo, Pussen); Barokko estetikasi; Ovro'pa ma'rifatparvarlari estetikasi (Sheftsberi, Xoum, Yum, Byork, Didro, Russo, Lessing) va ratsional estetika falsafasining yuksak nuqtaga ko'tarilishi; olmon mumtoz estetika falsafasi (Kant, Shiller, Shelling, Fixte, Hegel). Ovro'pa estetika falsafasida noratsional yo'nalishning qaror topishi; Kirkegaard va Shopenhauer estetikasining o'ziga xos xususiyatlari; Nitsshe estetikasi. XIX asr so'nggi choragi va XX asr boshlaridagi rus estetikasining mumtozlik xususiyati; unda diniy-idealistik nazariyalarning ustuvorligi; L. Tolstoy va F. Dostoevskiy estetik qarashlarining falsafiy mohiyati.
M7	**Turkiston ma'rifatchi-jadidlarining estetik qarashlari** Chor Rossiyasi mustamlakasi o'lkasi bo'lmish Turkistonda milliy uyg'onish davrining boshlanishi; jadidchilik ma'rifiy-ijtimoiy harakatining vujudga kelishi; ziyolilar orasida ma'rifatchilik va estetik g'oyalarning ommalashuvi; jadidchilikning mohiyatan axloqiy-estetik oqim ekani. Furqat va Anbar otinning estetik qarashlari. Behbudiy, Hamza va Aynining zamonaviy sana't turlari va janrlarga murojaat qilishi. Jadid teatrining vujudga kelishi; so'z sana'ti va teatr estetikasi. Fitrat va Cho'lpon estetikasi - jadidchilik estetikasining yuksak pog'onasi sifatida.

M8	**Eng yangi davr estetikasidagi asosiy ta'limotlar va yo'nalishlar** Zigmund Freydning ruhiy tahlil ta'limoti va freydchilik estetika falsafasi; Freyd tomonidan sublimatsiya g'oyasining rivojlantirilishi; ruhiy tahlil va san'at; K.Yung estetikasida ijodkor va badiiy ijod muammosiga o'ziga xos yondashuvning yuzaga kelishi; introvert va ekstrovert ijod; E. Fromm va boshqalarning yangifroydchilik estetikasi. Ekzistensialistik estetikasining insonparvarlik mohiyati (M. Haydegger, K. Yaspers, G. Marsel, J.P. Sartr, A. Kamyu). Eng yangi davr estetika falsafasidagi yangikantchilik, pozitivchilik, hayot falsafasi, falsafiy antropologiya, falsafiy germenevtika, dzen-buddhachilik va boshqa yo'nlishlar (J. Mariten, O. Shpengler, A. Bergson, U. Morris, X. Gadamer, D. Sudzuki, R. Tagor, J. Halil, A. Rayhoniy v.h).
M9	**Estetik munosabat. Estetik faoliyat** Estetik munosabatning boshqa hayotiy munosabatlardan farqi; uning individual hodisa sifatida "subektivlilik" xususiyati va ijtimoiylik jihatlari. Estetik jarayon tushunchasi. Estetik faoliyat mehnatning o'ziga xos turi sifatida; estetik faoliyatning ijodiylik xususiyati; turli ma'naviy faoliyatlarning estetik ibtidoga asoslanishi; mehnat, o'yin va san'atning o'zaro munosabatlari. Estetik faoliyatning turlarga bo'linishi; badiiy faoliyat va uning estetik tabiati; san'atning o'ziga xos estetik faoliyat sifatidagi ahamiyati; hunar va sana't; xalqijodi va professional ijodiy faoliyat.
M10	**Estetik anglash va uning tuzilmasi** Estetik anglash va uning gnoseologik ildizlari; estetik anglashning individuallik xususiyati; estetik bilish va estetik qadriyatlar; haqiqat, ezgulik va go'zallik - oliy qadriyatlar sifatida; go'zallik va haqiqat, go'zallik va ezgulik; estetik ongning gneoseologik ildizlari hamda uning umumbashariylik va milliylik jihatlari. Estetik anglashning asosiy unsurlari: estetik extiyoj; estetik munosabat; estetik tuyg'u; estetik did; estetik baho; estetik ideal; estetik qarashlar; estetik nazariyalar. SHaxs estetik ehtiyojini tarbiyalash muammolari.
M11	**Estetikaning asosiy tushunchalari** Estetikaning asosiy mezoniy tushunchalari (kategoriyalari) estetik bilishning muhim omili sifatida. Nafosatning metakategoriya sifatida ham tushuncha, ham xususiyat sifatida namoyon bo'lishi; uning qadriyatshunoslik tabiati. Estetika eng qamrovli mushtarak mezoniy tushuncha. Go'zallik mezoniy tushunchasi; go'zallik haqidagi tasavvurning o'zgaruvchanligi; go'zallikka sifatning ta'siri; go'zallik va manfaat; go'zallikkning san'atda namoyon bo'lishi; go'zallik va xunuklik. Ulug'vorlik mezoniy tushunchasi; ulug'vorlikning favqulodda salbiy hissiyotlarga asoslanishi; ulug'vorlikka son va miqyosning ta'siri; tabiatdagi ulug'vorlik; ulug'vorlikning san'atda namoyon bo'lishi; ulug'vorlik va tubanlik. Fojiaviylik tushunchasi; fojiaviy to'qnashuv va uning asoslari; fojiaviylik va estetik ideal; fojiaviylikning san'atda namoyon bo'lishi; fojia (tragediya) - san'at janri sifatida; fojiaviy ziddiyat va fojiaviy qahramon; forig'lanish.
M12	**Estetik tarbiya va uning vositalari. San'at estetik tarbiya quroli** Zamonaviy shaxsni voyaga etkazishda estetik tarbiyaning ahamiyati; estetik tarbiyaning xilma-xil yo'nalishlari, an'anaviy va zamonaviy shakllari; unda ommaviy axborot vositalarining mavqei; estetik tarbiyaning aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiya bilan o'zaro aloqadorligi. **Estetikaning ahamiyati va uning global, zamonaviy muammolari**
	Estetikaning jamiyat badiiy va estetik tajribalarini umumlashtiruvchilik xususiyati; uning ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni insoniylashtirish va go'zallashtirishdagi ahamiyati; estetik faoliyat miqyosini kengaytirishdagi roli. Estetika qonuniyatlarining umumbashariylik jihatlari; estetik qadriyatlar ustuvorligining mamlakatlararo va millatlararo tinch-totuvlikni, birdamlikni ta'minlovchi omil ekani; «Dunyoni go'zallik qutqaradi» shiorining va global ahamiyatga egaligi; Tabiat go'zalligi asrab avaylash va ekologiya, inson go'zalligining qadr qimmati va gumanizm.
M13	**Estetikaning ahamiyati va uning global, zamonaviy muammolari** Estetikaning jamiyat badiiy va estetik tajribalarini umumlashtiruvchilik xususiyati; uning ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni insoniylashtirish va go'zallashtirishdagi ahamiyati; estetik faoliyat miqyosini kengaytirishdagi roli. Estetika qonuniyatlarining umumbashariylik jihatlari; estetik qadriyatlar ustuvorligining mamlakatlararo va millatlararo tinch-totuvlikni, birdamlikni ta'minlovchi omil ekani; «Dunyoni go'zallik qutqaradi» shiorining va global ahamiyatga egaligi; Tabiat go'zalligi asrab avaylash va ekologiya, inson go'zalligining qadr qimmati va gumanizm.

III. Mashg'ulotlar shakli: Seminar

S1	Estetika kursining predmeti, tadqiqot doirasi, maqsadi va vazifalari
S2	Qadimgi Sharqdagi dastlabki estetik g'oyalar va qarashlar
S 3	Antik davr estetikasi
S4	O'rta asrlar musulmon Sharqi va tasavvuf estetikasi Amir Temur va Temuriylar davri estetikasi
S5	O'rta asrlar musulmon Sharqi va tasavvuf estetikasi Amir Temur va Temuriylar davri estetikasi
S6	O'rta asrlar Ovro'pa mutafakkirlarining estetik ta'limotlari
S7	Yangi davr Ovro'pa mutafakkirlari estetikasi
S8	Turkiston ma'rifatchi-jadidlarning estetik qarashlari
S9	Eng yangi davr estetikasidagi asosiy ta'limotlar va yo'nalishlar
S10	Estetik anglash va uning tuzilmasi
S11	Estetik munosabat. Estetik faoliyat
S12	Estetikaning asosiy tushunchalari: Uyg'unlilik estetika kategoriyasi
S 13	Estetik tarbiya va uning vositalari.
S 14	Estetikaning ahamiyati va uning global, zamonaviy muammolari

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Estetika" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mavzu nomi
1.	Estetika kursining predmeti, tadqiqot doirasi, maqsadi va vazifalari
2.	Qadimgi Sharqdagi dastlabki estetik g'oyalar va qarashlar
3.	Antik davrda estetikasi
4.	O'rta asrlar musulmon Sharqi va tasavvufda estetika

5.	Amir Temur va Temuriylar davri estetika
6.	O‘rta asrlar Ovro‘pa mutafakkirlarining estetik ta’limotlari
7.	Yangi davr Ovro‘pa mutafakkirlari estetikasi
8.	Turkiston ma’rifatchi-jadidlarning estetik qarashlari
9.	Eng yangi davr estetikasidagi asosiy ta’limotlar va yo‘nalishlar
10.	Estetik anglash va uning tuzilmasi
11.	Estetik munosabat. Estetik faoliyat
12.	Estetikaning asosiy tushunchalari
13.	Uyg‘unlilik estetika kategoriyasi
14.	San’atning vujudga kelishi va uning estetik mohiyati
15.	Badiiy ijod jarayoni
16.	Estetik tarbiya va uning vositalari
17.	Estetikaning ahamiyati va uning global, zamonaviy muammolari
18.	Go‘zallik mezoniy tushunchalari
19.	San’at estetik tarbiya quroli

Estetika fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:
estetika nafosatning mohiyatini o‘rganuvchi qadimiy fan ekanligi, fanning bugungi kundagi yangi tarmoqlari va ularning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri, mumtoz san’atning o‘ziga xos jihatlari va uning zamonoviy san’at bilan hamkorligi, go‘zallik, ulug‘vorlik kabilarga nisbatan mantiqiy xulosalar chiqara olishi, estetika falsafasi tafakkur tarixida hayotiy zaruriyati, kundalik faoliyat va ishlab chiqarish munosabatlarida estetika falsafasining o‘rni alohida ekanligi haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)** **Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:** Estetika fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr: - estetika tarixida san’at turlarini xillash muammosi, inson-tabiat-jamiyat munosabatlarida estetik tamoyillarning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, texnika estetikasi va uning bugungi kundagi ko‘rinishi bo‘lgan – dizaynning mohiyatini anglash, estetik did va badiiy didning inson faoliyatidagi o‘rni masalasi, estetikaning birlashtiruvchilik xususiyatga ega ekanligi borasida, estetik ravnaqning estetik ehtiyoj va estetik did bilan dialektik aloqadorligi, estetik ravnaqning san’at ravnaqi bilan uzviy bog‘liqligi haqida ***ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.*** .
4.	**VI. Ta’lim texnoligiyalari va metodlari:** ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar; “Aqliy hujum” metodi; “T-jadval”, “Venna” tahlil metodi va boshqa interfaol metodlar
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6.	**ASOSIY ADABIYOTLAR:** 1. Абдулла Шер. Эстетика. Дарслик. Тошкент. 2014 й 2. G‘aybullayev O.M. Nafosat falsafasi. –Samarqand: 2024. 3. Abdulla Sher, Bahodir Husanov, Erkin Umarov. Estetika. T. Universitet. 2008. 4. Falsafa (lotin yozuvida). / M.Axmedova tahriri ostida. –T.: Sharq, 2006 5. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Falsafa.Samarqand.: SamDU nashri, 2021. – 712 b. **QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:** Q 1 Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 jild. – T.: O‘zbekiston, 2019. Q 2 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – B. 464. Q 3 Falsafa (lotin yozuvida). / S.Mamashokirov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2005. Q 4 Abu Abdullox Muhammad Ibn Ismoil Al-Buxoriy. Hadis. 1-kitob. T. Qomuslar Bosh tahririyati. 1997. Q 5 Асмус В.Ф. Немическая эстетика. XVIII века. Izd.2. 2004. Q 6 Водчист. С.С. Эстетика пропорций и дизайне. Система книжных пропорции. 2005. Твёрдый реферат. 416 с. Q 7 Дзикич С.А. Эстетика рекламы. Учебное пособие. 2004. Q 8 Горын В.И. Общественно-эстетический идеал. Киев, Науково Думка, 1983. Q 9 Гегель Г.В.Ф. Лекции по эстетике в 2-х томах. Т.2. 2007. Твёрдый реферат. Q 10 Дидро Д. Эстетика и литературная критика. М., IXL, 1980. Q 11 Кучерюк Д. Эстетика труда. Киев. Высшая школа, 1989. Q 12 Корпушин И.И. Искусство и религия. -М.: Педагогика, 1991. Q 13 Курбанмамадов А. Эстетическая доктрина суфизма. Душанбе, Дониш. 1987. **AXBOROT MANBALARI (SAYTLAR):** www.lex.uz, www.ziyonet.uz, www.gov.uz, www.usaid.gov, www.faylasuf.uz, http//www.intencia.ru, http://www.anthropology.ru, http://www.filosofia.ru, http://www.falsafa.dc.uz,http://www.phenomen.ru, http://www.lib.ru/FILOSOF O‘zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy veb sayti www.gov.uz
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv uslubiy Kengashining 2024 yil “___” _____ dagi 1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ul:** O.G‘aybullayev – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti, Falsafa va milliy g‘oya kafedrasi professori
9.	**Taqrizchilar:** A.Samadov - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti, Falsafa va milliy g‘oya kafedrasi **prof.** (ichki) R.Komilov– Samarqand Davlat chet tillar instituti Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalar kafedrasi F.F.d, (DSc).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma’sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova _____

Falsafa va milliy g‘oya kafedra mudiri **prof. A.Samadov**

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani **prof. A.Q. Aymatov**

SamDU o‘quv ishlari bo’yicha prorektor **prof. A.Soleev**

Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, “Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasining “Estetika” faniga tayyorlangan fan dasturiga TAQRIZ

"Estetika” fani yo'nalishi xusu«iyatlarini hisobga olgan hołda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon ctish uchun zarur ko'rsa(ma va tavsiyalar kcltirilgan. Shuningdck mustaqil ish shakllari va mavzulari, ranni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari harnda asosiy qo'shimchalar batafsil bayon ctilgan. Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalari qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglarni o ˢ z ichiga olgan.

Fan dasturi oliy ta'lim tizimda bakalavir bosqichi talabalari uchun o'tiladigan "Estetika” fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujat hisoblanadi.

Dasturda "Estetika” fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga olgan hołda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ulami bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natljalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalami o'z ichiga Olgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga ołgan.yuqoridagilami hisobga Olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan talablarga mos.

Shundan kelib chiqib, "Estetika” fanidan tayyorlangan fan dasturi mazmunan va tuzilishi jihatidan OTM fan dasturlariga qo'yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti,

Falsafa va milliy g‘oya kafedrasi professori A.Samadov _____

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasining "Estetika" faniga tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Fan dasturida fani yo'nalishi xusu«iyatlarini hisobga Olgan hołda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon ctish uchun zarur ko'rsa(ma va tavsiyalar kcltirilgan. Shuningdck mustaqil ish shakllari va mavzulari, ranni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari harnda asosiy qo'shimchalar batafsil bayon ctilgan. Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalari qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglarni o ˢ z ichiga olgan.

Fan dasturi oliy ta'lim tizimda bakalavir bosqichi talabalari uchun o'tiladigan "Estetika" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujat hisoblanadi.

Dasturda "Estetika" fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga olgan hołda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ulami bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natljalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalami o'z ichiga Olgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga ołgan.yuqoridagilami hisobga Olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan talablarga mos.

Shundan kelib chiqib, "Estetika" fanidan tayyorlangan fan dasturi mazmunan va tuzilishi jihatidan OTM fan dasturlariga qo'yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

Samarqand davlat cheł tillar instituti
professor v/b.R.Komilov

ɔt
ɔfessori v.b. (DSc) R.Komilov

Komilo ING IMZOSINI
TASDIQLAYMAN
amDCHTI KADRLAR